



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI 2023- YIL YANVAR-MART OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)






2023- yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 40 416,3 mlrd. so'mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 38 289,6 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 1 790,5 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 336,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o'sish sur'ati dinamikasi




2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,2 % ni (2022-yilning yanvar-mart oylari mos ravishda 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan –102,8 %) tashkil qildi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



2023- yilning yanvar-mart oylarida dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 103,3 % ni (2022-yilning yanvar-mart oylari mos ravishda 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan –102,9 %), o'rmon xo'jaligi – 100,7 % ni (101,9 %), baliqchilik xo'jaligi – 100,5 % ni (102,1 %) tashkil qildi.



Ma'lumot uchun:


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga, asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

✓	Qorako'l teri	104,8 %
✓	Go'sht	103,9 %
✓	Sut	103,2 %
✓	Qirqib olingan jun	102,8 %
✓	Ovlangan baliq	100,5 %
✓	Tuxum	100,2 %



O'zbekiston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 94,8 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2022- yilning yanvar-mart oylarida 94,7 %), 4,4 % i – o'rmon xo'jaligi (4,4 %), 0,8 % i – baliqchilik xo'jaligi (0,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.




O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YAHM tarkibidagi ulushi

2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) (yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ)) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 12,4 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax viloyatiga (32,4 %) to'g'ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududga Navoiy viloyatini (7,7 %) keltirib o'tish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,3%
Andijon	21,1%
Buxoro	26,8%
Jizzax	32,4%
Qashqadaryo	20,7%
Navoiy	7,7%
Namangan	20,2%
Samarqand	24,0%
Surxondaryo	30,2%
Sirdaryo	20,0%
Toshkent	13,9%
Farg'ona	18,8%
Xorazm	31,4%

Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-mart oylarida, hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (5 113,4 mlrd. so'm), Toshkent (4 829,6 mlrd. so'm) va Buxoro (3 766,5 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (1 287,6 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1 338,1 mlrd. so'm) va Navoiy viloyatini (2 090,4 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.




Ma'lumot uchun:

2023- yilning yanvar-mart oylarida, Samarqand va Toshkent viloyatlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha Respublikada yetakchi o'rinlarni egallashi, mazkur hududlarning go'sht, sut, va tuxum kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha, go'sht, sut, tuxum va sabzavotlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasining kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da




Respublikaning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 12,6 % ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Toshkent va Buxoro viloyatlari mos ravishda 11,9 % va 9,3 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo viloyati (3,2 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,3 %) va Navoiy viloyatida (5,2 %) qayd etildi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida eng yuqori va eng kam ulushga ega hududlar



Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, % da



Yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (105,6 %), Namangan (104,0 %), Farg'ona (103,5 %), Sirdaryo (103,4 %), Buxoro (103,1 %) va Navoiy (103,0 %) viloyatlarida qayd etildi. Andijon (102,3 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (102,4 %), Jizzax (102,7 %), Toshkent va Samarqand viloyatlarida (102,8 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
tarmog'ida kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik ko'rsatkichlari

	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
O'zbekiston Respublikasi	38 829,7	102,9	96,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 269,8	101,9	94,9
Andijon	3 177,7	102,4	97,5
Buxoro	3 703,1	103,4	98,3
Jizzax	2 780,7	102,0	98,7
Qashqadaryo	3 230,8	103,0	98,9
Navoiy	2 017,2	102,8	96,5
Namangan	2 455,5	103,7	95,2
Samarqand	4 749,1	99,2	92,9
Surxondaryo	3 142,5	103,3	96,0
Sirdaryo	1 267,0	103,2	98,4
Toshkent	4 501,7	103,4	93,2
Farg'ona	3 265,9	104,7	94,7
Xorazm	3 268,7	105,5	97,7

Respublikaning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 96,1 % ni tashkil etdi, Ushbu ko'rsatkichni hudular bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga ega hududlarga Qashqadaryo (98,9 %), Jizzax (98,7 %), Sirdaryo (98,4 %), Buxoro (98,3 %) va Xorazm (97,7 %) viloyatlarini keltirishimiz mumkin.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari



Ma'lumot uchun:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari — ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 37 760,2 mlrd, so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 2 752,9 mlrd. so'mni (97,7 %)

chorvachilik mahsulotlari – 35 007,3 mlrd, so'mni (103,6 %) tashkil qildi.




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ulushining dinamikasi



Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari




■ Chorvachilik mahsulotlari ■ Dehqonchilik mahsulotlari



Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (4 832,5 mlrd. so'm), Toshkent (4 470,4 mlrd. so'm) va Buxoro (3 633,4 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (1 129,2 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1 181,1 mlrd. so'm) va Navoiy viloyati (1 925,1 mlrd. so'm)ni keltirib o'tish mumkin.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (104,7 %), Namangan (103,9 %), Farg'ona (103,7 %), Sirdaryo (103,6 %) va Navoiy (103,4 %) viloyatlarida qayd etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi (102,3 %), Jizzax (102,4 %), Qashqadaryo (102,7 %), Surxondaryo, Andijon (102,8 %) va Buxoro (102,9 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, % da




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,4 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,1 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,5 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Ma'lumot uchun:

Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:





Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik
toifalari kesimida taqsimlanishi, % da



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida (12,4 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida (93,3 %), qishloq




xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (10,1 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Jizzax viloyatida (4,8 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Navoiy viloyatida (83,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Andijon viloyatida (1,5 %) kuzatildi.





Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab
chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari



Fermer
xo'jaliklari

Dehqon va
tomorqa
xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi
tashkilotlar



DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI

Respublikada jami yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Surxondaryo (20,8 %), Toshkent (15,2 %), Buxoro (9,5 %) va Farg'ona (9,2 %) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



O'zbekiston Respublikasi

2023- yil yanvar–mart



2 752,9 mlrd. so'm



O'sish sur'ati **97,7 %**

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi, % da



Yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (117,3 %), Navoiy (108,7 %), Sirdaryo (103,8 %), Farg'ona (103,3 %) va Namangan (102,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Dehqonchilik mahsulotlari — joriy yil hosildan olingan barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining don, texnik ekinlar, kartoshka, sabzavotlar va poliz ekinlari, mevalar va rezavorlar, uzum, ozuqa ekinlari, urug'lik va o'tqaziladigan ko'chat materiallari, shuningdek, dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish, dehqonchilikning boshqa turdagi mahsulotlari qiymatlarini o'z ichiga oladi.



Sabzavotlar

Fermer xo'jaliklari

7,7
ming t

Dehqon va tomorqa
xo'jaliklari

46,1
ming t


Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi tashkilotlar

18,1
ming t

2023- yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan sabzavotlar 71,9 ming tonnani, yoki 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 93,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,2 % o'sish qayd etildi. Aksincha fermer xo'jaliklarida 12,8 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 20,9 % kamayish kuzatildi.

Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish, tonna



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining qariyb uchdan bir qismi Surxondaryo viloyati (31,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Toshkent (18,3 %), Farg'ona (10,6 %) va Buxoro (10,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Past ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,4 %) va Jizzax viloyatida (1,3 %) kuzatildi.


2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (134,9 %), Navoiy (116,0 %), Sirdaryo (105,7 %), Namangan (104,6 %) viloyatlarida qayd etildi.



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush Samarqand (13,3 %), Toshkent (11,6 %) , Buxoro (9,6 %), Farg'ona va Xorazm (8,7 %) viloyatlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



O'zbekiston Respublikasi

2023- yil yanvar–mart

Hajmi



O'sish sur'ati

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi, % da



Ma'lumot uchun:

Chorvachilik mahsulotlari qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarni, ipak qurtini o'stirish natijasida olingan mahsulotlar qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'atini hududlar kesimida tahlil etar ekanmiz yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (104,3 %), Xorazm (104,2 %), Namangan va Buxoro (104,0 %) viloyatlarida qayd etildi.



2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming t,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming t,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming t,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming t,</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Go'sht (tirik vaznda)	526,6	103,9	23,8	145,6	472,0	102,3	30,8	106,4
Sut	1 923,8	103,2	102,0	121,6	1 799,3	102,2	22,5	111,4
Tuxum mln, dona	1 342,3	100,2	209,3	126,0	776,0	101,7	357,0	86,8
Qorako'l teri, ming dona	429,2	104,8	43,2	154,9	372,3	100,2	13,7	134,9
Baliq	16,3	100,5	5,0	156,3	1,3	104,7	10,0	85,0

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 526,6 ming t. go'sht, 1 923,8 ming t. sut, 1 342,3 mln. dona tuxum, 429,2 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 16,3 ming t. baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, sog'ib olingan sut – 103,2 % ni, olingan tuxum – 100,2 % ni, olingan qorako'l teri – 104,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 100,5 % ni tashkil qildi.



2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 4,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.


Shunga mos ravishda sog'ib olingan suting 5,3 % i fermer xo'jaliklari, 93,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 15,6 % i fermer xo'jaliklariga, 57,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 10,1 % i fermer xo'jaliklariga, 86,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 30,6 % i fermer xo'jaliklariga, 7,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 61,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.


2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulushi, % da





Go'sht (tirik vaznda)

Hajmi, ming t.




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 526,6 ming tonna go'sht yetishtirildi.

Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 472,0 ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2023- yilning yanvar-mart oylarida go'sht yetishtirish hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,9 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 45,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,3 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 6,4 % o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati, % da



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 4,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish



	Hajmi, ming t.	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	526,6	103,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16,4	103,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	44,2	101,4
Buxoro	51,0	104,3
Jizzax	36,7	102,9
Qashqadaryo	44,3	103,1
Navoiy	30,3	103,5
Namangan	29,0	106,3
Samarqand	67,8	106,2
Surxondaryo	36,9	104,7
Sirdaryo	15,1	102,8
Toshkent	71,5	102,4
Farg'ona	40,9	100,2
Xorazm	42,5	110,2

Yuqori ulushga ega hududlar



Toshkent 13,6 %

Samarqand 12,9 %

Buxoro 9,7 %

Past ulushga ega hududlar



Namangan 5,5 %

Qoraqalpog'iston Respublikasi 3,1 %


Sirdaryo 2,8 %

2023-yilning yanvar-martida yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (110,2 %), Namangan (106,3 %), Samarqand (106,2 %), Surxondaryo (104,7 %) va Buxoro (104,3 %) viloyatlarida qayd etildi.



Sut

Hajmi, ming t.



2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 923,8 ming tonna sut yetishtirildi.

Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sut yetishtirishning eng katta hajmi 1 799,3 ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2023- yilning yanvar-mart oylarida sut yetishtirish hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,2 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 21,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 11,4 % o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati, % da



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan sut to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sut yetishtirishning 5,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo'yicha sut yetishtirish



	Hajmi, ming t.	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	1 923,8	103,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	53,7	103,5
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	110,2	104,9
Buxoro	203,6	103,5
Jizzax	122,6	102,7
Qashqadaryo	145,6	102,8
Navoiy	84,8	103,0
Namangan	120,3	104,2
Samarqand	284,8	103,2
Surxondaryo	144,7	103,4
Sirdaryo	56,5	104,5
Toshkent	163,7	102,7
Farg'ona	221,9	105,0
Xorazm	211,4	100,3

Yuqori ulushga ega hududlar



Samarqand 14,8 %

Farg'ona 11,5 %

Xorazm 11,0 %

Past ulushga ega hududlar



Navoiy 4,4 %

Sirdaryo 2,9 %

Qoraqalpog'iston Respublikasi 2,8 %


2022-yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari

Farg'ona (105,0 %), Andijon (104,9 %) Sirdaryo (104,5 %), Namangan (104,2 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (103,5 %), Buxoro (103,5 %) va Surxondaryo (103,4 %) viloyatlarida qayd etildi.



Tuxum

Hajmi, mln. dona





2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 342,3 mln. dona tuxum yetishtirildi.

Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 776,0 mln. dona dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


O'sish sur'ati, % da

2023- yilning yanvar-mart oylarida tuxum yetishtirish hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 100,2 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 26,0 % va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,7 % o'sish kuzatildi. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 13,2 % kamayish qayd etildi.



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan tuxum to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum yetishtirishning 15,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 57,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish

	Hajmi, mln. dona	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	1 342,3	100,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	81,1	101,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	55,8	100,2
Buxoro	84,4	108,5
Jizzax	57,0	106,2
Qashqadaryo	92,4	100,1
Navoiy	77,2	102,3
Namangan	120,7	104,9
Samarqand	200,5	92,8
Surxondaryo	109,2	102,3
Sirdaryo	37,3	103,8
Toshkent	230,7	103,2
Farg'ona	99,5	93,3
Xorazm	96,5	95,6

Yuqori ulushga ega hududlar



Toshkent 17,2 %

Samarqand 14,9 %

Namangan 9,0 %

Past ulushga ega hududlar



Jizzax 4,2 %

Andijon 4,2 %


Sirdaryo 2,8 %

2022- yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (108,5 %), Jizzax (106,2 %), Namangan (104,9 %), Sirdaryo (103,8 %), Toshkent (103,2 %), Surxondaryo (102,3 %), Navoiy (102,3 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (101,0 %) kuzatildi.



Baliq

Hajmi, t.



2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 16 275 tonna baliq ovlandi.

Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, ovlangan baliqning eng katta hajmi 10 034 tonna qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


O'sish sur'ati, % da

2023- yilning yanvar-mart oylarida ovlangan baliq hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 100,5 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 56,3 % va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 4,7 %, o'sish kuzatildi. Aksincha, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 15,0 % pasayish kuzatildi.



Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil yanvar-mart oylarida ovlangan baliq to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, ovlangan baliqning 30,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 7,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 61,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



	Hajmi, t.	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	16 275	100,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	766	118,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 440	79,1
Buxoro	1 490	116,9
Jizzax	3 168	117,0
Qashqadaryo	462	126,9
Navoiy	1 296	68,7
Namangan	739	215,6
Samarqand	166	132,9
Surxondaryo	245	123,0
Sirdaryo	922	91,1
Toshkent	2 101	64,0
Farg'ona	810	66,8
Xorazm	2 670	202,5

Yuqori ulushga ega hududlar



Jizzax 19,5 %

Xorazm 16,4 %

Toshkent 12,9 %

Past ulushga ega hududlar



Qashqadaryo 2,8 %

Surxondaryo 1,5 %

Samarqand 1,0 %

2022-yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari

Namangan (215,6 %), Xorazm (202,5 %), Samarqand (132,9 %), Qashqadaryo (126,9 %), Surxondaryo (123,0 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (118,4 %), Jizzax (117,0 %) va Buxoro (116,9 %) viloyatlarida qayd etildi.



**2023- yilning 1- aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

2023- yilning 1- aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13 571,1 ming boshga yetdi, (2022- yilning 1- aprel holatiga nisbatan 2,0 % ga ko'p), sigirlar 4 776,1 ming boshga (2,1 % ga ko'p), qo'y va echkilar 23 261,2 ming boshga (2,8 % ga ko'p), otlar 265,0 ming boshga (2,3 % ga ko'p), parrandalar 88 974,0 ming boshga (2,6 % ga ko'p) yetdi.


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Yirik shoxli qoramollar	13 571,1	102,0	857,1	99,3	12 523,7	102,1	190,3	104,3
<i>shundan, sigirlar</i>	4 776,1	102,1	309,2	103,5	4 403,2	101,9	63,7	111,6
Qo'y va echkilar	23 261,2	102,8	3 214,6	101,9	18 618,4	102,0	1 428,2	117,4
Otlar	265,0	102,3	54,8	103,6	196,3	101,3	13,9	111,9
Parrandalar	88 974,0	102,6	13 407,0	93,2	51 457,6	100,6	24 109,4	113,9

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.



2023- yilning 1- aprel holatiga mavjud chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jaliklar toifalari bo'yicha ulushi




- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Fermer xo'jaliklari

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,5 % i fermer xo'jaliklariga, 92,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 13,8 % i fermer xo'jaliklariga, 80,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, otlarning umumiy sonidan 20,7 % i fermer xo'jaliklariga, 74,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 15,1 % i fermer xo'jaliklariga, 57,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



Yirik shoxli qoramollar

Soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13 571,1 mingtaga yetdi.

Yirik shoxli qoramollar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 12 523,7 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

O'sish sur'ati, % da

2023- yilning 1- aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,0 % ni tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,1 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 4,3 % o'sish qayd etildi. Fermer xo'jaliklarida 0,7 % pasayish kuzatildi.

99,3

102,1

104,3

Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil 1- aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar bosh sonining 6,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari




Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Yirik shoxli qoramollar




Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, 2022-yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (104,2 %), Navoiy (103,3 %), Namangan (102,8 %), Buxoro (102,5 %), Surxondaryo (102,4 %), Qashqadaryo (102,2 %) va Andijon (102,1 %) viloyatlarida qayd etildi.



Sigirlar

Soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 4 776,1 mingtaga yetdi.

Sigirlar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 4 403,2 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023- yilning 1- aprel holatiga sigirlar bosh soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 3,5 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,9 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 11,6 % o'sish qayd etildi.


O'sish sur'ati, % da

103,5

101,9

111,6

Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil 1- aprel holatiga sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sigirlar bosh sonining 6,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari




Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Sigirlar




Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (104,7 %), Namangan (103,9 %), Buxoro (103,8 %), Navoiy (103,0 %), Samarqand (102,8 %), Surxondaryo (102,6 %), Jizzax (102,3 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (102,3 %) va Andijon viloyatida (102,2 %) qayd etildi.



Qo'y va echkilar

Soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 23 261,2 mingtaga yetdi.

Qo'y va echkilar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 18 618,4 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

O'sish sur'ati, % da

2023- yilning 1- aprel holatiga qo'y va echkilar bosh soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,8 % ni tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 1,9 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,0 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 17,4 % o'sish qayd etildi.

101,9

102,0

117,4

Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil 1- aprel holatiga qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, qo'y va echkilar bosh sonining 13,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 80,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.


 Fermer xo'jaliklari

 Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

 Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Qo'y va echkilar




Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, 2022-yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (108,4 %), Xorazm (105,1 %) Navoiy (104,5 %), Toshkent (103,8 %), Namangan (103,3 %) va Buxoro (103,1 %) viloyatlarida qayd etildi.



Otlar

Soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 265,0 mingtaga yetdi.

Otlar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 196,3 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

O'sish sur'ati, % da

2023- yilning 1- aprel holatiga otlar bosh soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,3 % ni tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 3,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,3 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 11,9 % o'sish qayd etildi.

103,6

101,3

111,9

Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil 1- aprel holatiga otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, otlar bosh sonining 20,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 74,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Otlar




	Soni, ming bosh	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	265,0	102,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,1	97,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	7,1	102,7
Buxoro	7,1	106,8
Jizzax	30,8	102,4
Qashqadaryo	33,8	103,3
Navoiy	21,1	104,1
Namangan	7,2	105,3
Samarqand	27,8	102,1
Surxondaryo	15,8	104,3
Sirdaryo	16,7	108,2
Toshkent	55,6	100,4
Farg'ona	10,1	101,5
Xorazm	5,8	100,9

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (108,2 %), Buxoro (106,8 %), Namangan (105,3 %), Surxondaryo (104,3 %), Navoiy (104,1 %), Qashqadaryo (103,3 %), Andijon (102,7 %) va Jizzax (102,4 %) viloyatlarida qayd etildi.



Parrandalar

Soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 88 974,0 mingtaga yetdi.

Parrandalar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 51 457,6 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023- yilning 1- aprel holatiga parrandalar bosh soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,6 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 13,9 % o'sish qayd etildi. Fermer xo'jaliklarida 6,8 % pasayish kuzatildi.


O'sish sur'ati, % da

93,2

100,6

113,9

Jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2023- yil 1- aprel holatiga parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, parrandalar bosh sonining 15,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 57,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Parrandalar



	Soni, ming bosh	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	88 974,0	102,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 732,4	98,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	9 088,5	109,7
Buxoro	6 329,8	111,2
Jizzax	3 881,3	101,0
Qashqadaryo	5 683,0	98,9
Navoiy	3 582,9	105,7
Namangan	5 852,8	104,6
Samarqand	12 247,5	101,7
Surxondaryo	4 953,4	93,8
Sirdaryo	2 999,7	100,4
Toshkent	14 989,4	100,4
Farg'ona	8 085,0	100,3
Xorazm	6 548,3	108,3

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, o'tgan yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Buxoro (111,2 %), Andijon (109,7 %), Xorazm (108,3 %), Navoiy (105,7 %) va Namangan (104,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi boshqarmasi



• 71-202-81-11
• 71-202-80-53